

Amir Nasrulloxon ibn Amir Haydar



Amir Nasrulloxon ibn Amir Haydar

(1806 yil 1 iyun – 1860 yil 21 sentabr)

(1826-1860)

Mang'itlar sulolasidan bo'lgan Buxoro amiri. Otasi **Amir Haydar** hukmronligi davrida Qarshida hokimlik qilgan. 1826 yili Amir Haydar vafot etgach bir necha oy mobaynida Nasrulloning ikki akasi – *Husayn* va *Umar* almashinildi. Birinchisi zaharlandi, ikkinchisi esa o'ldirildi. Shu yili (1826) Amir Haydarning uchinchi o'g'li shavqatsizligi uchun "**Amiri qassob**" laqabini olgan Nasrulloxon taxtga o'tirdi. Akalari o'limidan keyin taxtga o'tirgan Nasrulloxon qisqa vaqt ichida taxtga da'vo qilishi mumkin bo'lgan avlodlaridan barchasining bahridan o'tadi. U qo'shinlariga tayangan holda o'zbek feodal zodogonlarini beayov qira boshladi. U yer egalarining mol-mulki va yerlarini musodara, o'zlarini badarg'a qilib, o'ldirtirib yubordi. Bu borada uning eng yaqin yordamchisi rais *Rahmonbedi Niyoz* edi. Nasrulloxon o'z hukmronligi davrida islom shariati ko'rsatmalari amal qilgan. Nasrulloxon jasur va dovyurak kishi bo'lganligi bois unga "**Bahodir, Botir**" unvonlari berilgan. Nasrulloxon davlat hokimyatini mustahkamlash maqsadida urug' va qavm boshliqlari bo'lgan ko'plab amaldorlarni quyi tabaqalardan chiqqan yosh va g'ayratli kishilar bilan almashtirdi. 1837 yilda harbiy sohada islohatlar o'tkazib, o'z qo'shining jangavor holatini yaxshilaydi. Har biri 800 kishidan iborat 50 ta sarbozlar buluklari va 250 kishilik to'pchilar guruhi tashkil qilingan. Muntazam piyoda qo'shining soni 40 ming kishidan ortiq bo'lgan. Nasrulloxon Xiva va Qo'qon xonliklarini Buxoro atrofida birlashtirishda urungan. Mamlakatning hududiy yaxlitligini tiklash uchun 1840-42 yillari Qo'qon xonlari tomonidan tortib olingan Xo'jand, O'ratega, Toshkent, Jizzax va Zominni Buxoro amirligiga qaytardi. Farg'ona vodiysi ulamolarining talabi bilan 1842 yili Qo'qonga yurish qilib xonlik hududini egallagan. Biroq u Qo'qon xoni Muhammad Alixonni qatl qilish bilan cheklanmasdan, uning onasi (Nadirabegim)ni

ham o'ldiradi. Nasrulloxon tomonidan Qo'qonga Ibrohim parvonachi mang'itning noib qilib qoldirilishi salbiy oqibatlarga ham olib kelgan. Noib mahalliy aholiga zulm o'tkazib, soliqlarni ko'paytirdi. Natijada, tez orada Qo'qon qo'lidan ketadi. 1843 yilda Nasrulloxon Marvni ham Buxoroga bo'ysuntiradi. Shuningdek, Nasrulloxon qo'shini 20 yilda olib borgan 32 ta harbiy yurishidan so'ng 1856 yilda Shahrisabzni uzil-kesil egallagan. Shahrisabz markaziy hokimyatga bo'ysungach, u sulh ramzi sifatida mahalliy hukmdor – Iskandar Vallomaning sinlisi Kenagaxsonimga uylangan.

Nasrulloxon hukmronlik qilgan yillar Turkiston mintaqasida Rossiya Angliya manfaatlari o'zaro to'qnashgan davr hisoblanadi. Uning davrida Nasrullon tomonidan Buxoroda *Qozi Hasanxo'ja*, *Olimjonboy*, *Eshoni Pir*, *Mirzo Ubayd*, *Ismoilxo'ja* (1829), *Ali Chubin*, *Mirzo Abdulg'affor*, *Tojiddin* madrasalari (1860) qurildi. Xalifa Xudaydod me'moray majmuasi yakunlandi(1855). Nasrulloxon Buxoroda dafn etilgan.

2023-11-05 12:09:42